



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№2(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 234 sahifa,
2-fevral, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'quvchilarni intellektual rivojlantirishning psixologik omillari	22
<i>Ashurov Ramzidin Ramazonovich</i>	
Maktabgacha ta'limda bolaning kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda oila bilan ishlashning nazariy asoslari	27
<i>Jumanova Fatima Uralovna, Allaberganova Munisa Begimboy qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishning metodologik asoslari	32
<i>Jo'rayeva Nargiza Tairovna, Bekbergenova Yulduz Tanirbergen qizi</i>	
Faoliyatli yondashuv asosida maktabgacha 6-7 yoshli bolalarda nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	35
<i>Ziyodullayeva Mohirabonu Ikromjon qizi</i>	
Davlat ta'lim muassasalarida manfaatlar to'qnashuvini boshqarishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari ...	39
<i>Xaybatullaeva Sojidxon Ziyatullayevna</i>	
Umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya darslarining samaradorligini oshirishda integratsion yondashuv	42
<i>Kamoliddinov Mirzohid</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda interfaol metodlarning samaradorligi	45
<i>Kamoliddinova Dilnoza Axmadilaxanovna</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda kreativ faollikni rivojlantirish mexanizmlari.....	48
<i>Nurjanova Rayxan Urazbaevna</i>	
Sinf biologiya fanini o'qitishda TIMSS topshiriqlardan foydalanish metodikasi va baholash mezonlari	52
<i>Xaitboyeva Dilorom Rustam qizi</i>	
Qandli diabet tashxisli bemorlarda shaxs tuzilmasining emotsional komponentlari	56
<i>Sadikova Umida Botirovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda pedagogik diagnostikani amalga oshirishning natijaviyligi	60
<i>Maxmutazimova Yulduz Raxmatovna, Qodirova Shaxnoza Saidazim qizi</i>	
Kasbiy imij shakllanishida psixologik jihatlarining tafovutlari	64
<i>Aminova Dilnoza Orifjonovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining jamoa bilan ishlash jarayonida yetakchilik kompetensiyalarini rivojlantirish	69
<i>Abdiyeva Fazilat Fayzulla qizi</i>	
Kichik maktab yoshidagi bolalar shaxsi rivojlanishida psixologik moslashuvning tipik xususiyatlari	73
<i>Mirsaitova Guzal Baxodirovna</i>	
Oliy ta'lim tizimida variativ modellashirish asosida talabalarning kreativ faoliyatini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarining qo'llanilishi	76
<i>Quvvatova Mohira Hikmatillayevna</i>	
Interfaol treninglar orqali o'qituvchilarning innovatsion fikrlashini rivojlantirish tajribasi	79
<i>Abdiyeva Shodiyona Yodgor qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyani shakllantirishning ahamiyati.....	82
<i>Zulayxo Nazarova, Qarshiboyeva Muxlisa Ismatullo qizi</i>	
Ijodiy qobiliyatni o'stirishda pedagogik mahorat va innovatsion metodlar	85
<i>Mutallibova Odinaxon Mirzaolimjon qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida olimpiadalarga tayyorlashda masalalar yechish texnologiyasi 11-sinf misolida	89
<i>Aslonov Xayrullo Shukrullo o'g'li</i>	



Bokschi qizlarni texnika taktikasini takomillashtirish.....	94
<i>Axmedov Latifjon G'ayrat o'g'li</i>	
Ixtisoslashtirilgan terminologiyaning asosiy lingvistik xususiyatlari	99
<i>Axmedova Dilnoza Anvarovna</i>	
Interfaol metodlar orqali zamonaviy darslarni tashkil etishning o'ziga xos tendensiyalari	102
<i>Bakirov Otabek Bo'ranovich</i>	
Boshqaruv psixologiyasi terminlarini tarjima qilishning metodologik muammolari	106
<i>D. J. Norboyeva</i>	
Raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta'lim muassasalari talabalari ruhiyatiga virtual muhitning salbiy ta'siri	110
<i>Giyosov Ulug'bek Eshpulatovich, Turayeva Nigora Husniddin qizi</i>	
Hamshiralik ishida raqamli texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi.....	113
<i>Rasulova Gulmira, Amonova Dildora, Abdurahmonov Aziz, Hakimova X. X.</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kognitiv qobiliyatlarni shakllantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar	117
<i>Jumayev Xushboq Soatmumin o'g'li</i>	
Principles of Organising Autonomous Learning.....	121
<i>Khazratova Zukhra Mamaraimovna</i>	
Najot – ta'limda, najot-tarbiyada	124
<i>Mo'minova Manzura Mamasodiqjonovna</i>	
Educational Potential of Museum Pedagogy and Criteria for its Application in Developing Historical Thinking of Pre-Service History Teachers.....	127
<i>Niyozov Javlonbek</i>	
Landshaft dizayni vastasida bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining estetik va kreativ ko'nikmalarini rivojlantirish	131
<i>Radjapova Zuxra Tirkashevna</i>	
Abdulla Avloniy pedagogik merosida shaxs psixologiyasi masalalari.....	134
<i>S. O. Mamarasulov, D. A. Egamberdiyeva</i>	
TBL metodini qo'llash orqali o'quvchilarning madaniyati va ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish....	138
<i>Sodikova Oyshakhon Muxammadsodik</i>	
Pedagogik innovatsiyalarni boshqarishning nazariy-metodologik asoslari.....	142
<i>Soliqova Barno Sodiq qizi</i>	
Boshlang'ich ta'lim magistratura talabalarining ijodiy faolligini rivojlantirish shart-sharoitlari	146
<i>Yarmatov Shermo'min Rahmatovich</i>	
Формирование готовности родителей детей старшего дошкольного возраста к выполнению воспитательной функции в семье.....	149
<i>Атаджанова Сохиба Талиповна</i>	
Redjio pedagogik yondashuv asosida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish pedagogik muammo sifatida	152
<i>Djamilova Nargiza Nuritdinovna, Otahonova Marjona</i>	
Talabalarda algoritmik kompetentlikni rivojlantirishning sun'iy intellekt va Big Data Analytics asosida o'quv faoliyatini real vaqt rejimida kuzatuvchi va boshqaruvchi konseptual modelni takomillashtirish.....	155
<i>Kayumova Nazokat Rashitovna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida chet tili o'qituvchilari va talabalar o'rtasidagi interaktsiyaning pedagogik samaradorligi va innovatsion mexanizmlari	163
<i>Eshonqulova Umida Xolmirzayevna</i>	
MTTlarda nutqni rivojlantirishga doir mashg'ulotlarda interfaol usullardan foydalanish texnologiyasi	168
<i>To'laboyeva Iqbolaxon Olimjonovna</i>	
Ta'lim jarayonidagi konfliktlar.....	173
<i>Abulova Mohigul Komiljonzoda</i>	
Talabalarining bolalarda ijtimoiy moslashuvni shakllantirishga kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish	176
<i>Inomova Mahliyo Yusuf qizi</i>	



Shaxs tuzilmasida ma'naviy intellekt: nazariy-metodologik tahlil va psixologik interpretatsiya	179
Mirxoliqova Charos Xabibullaevna	
18-20 yoshli belbog'li kurashchilarning musobaqa oldi jismoniy tayyorgarliklari	183
Muzafarov Muxammadali Maxsudovich	
Talabalarda mustaqil ta'lim topshiriqlaridan foydalanib kasbiy madaniyatini rivojlantirishga zamonaviy yondashuvlar (boshlang'ich ta'limda tarbiya fani misolida)	187
Yadgarova Surayyo	
Maktab o'quvchilariga pedagogik ta'sir ko'rsatishda o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish	190
Yo'ldoshova Shahlo Shukurullo qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirishning nazariy tahlili	194
Yusupova Sanobar Odil qizi	
Типология научного текста: от жанровой классификации к дискурсивной модели	197
Бахтияр Катибжанович Саттаров	
Взаимодействие педагога и семьи в профилактике и преодолении стресса у детей дошкольного возраста	201
Г. С. Алиходжаева, Х. Рахимова	
Условия эффективности инклюзивного образования	206
Г. С. Алиходжаева, Л. О. Бекмуродова	
Педагогическая готовность к обучению в школе детей билингов	211
Г. С. Алиходжаева, Н. А. Ганиева	
Педагогические условия формирования эмоционального интеллекта у дошкольников	216
Джалилова Феруза Намазовна	
Milliy meros va musiqiy madaniyatning yosh avlod tarbiyasidagi o'rni	219
Zuhriddin Azizov	
Госпитальная школа как пространство поддержки и развития ребёнка (на примере госпитальной школы при детской клиники Синсиннати, США)	222
Муминов Р. Р., Хакимова Н. Х., Набиева Г. Г.	
Интерактивные формы работы в процессе профориентации детей дошкольного возраста	227
Н. Т. Жураева, С. М. Ахмеджанова	
Samarali hamkorlikdagi faoliyatga tayyorlashga oid yondashuvlar	231
Hojiyeva Zulfiya O'ktamovna	

MAKTAB O'QUVCHILARIGA PEDAGOGIK TA'SIR KO'RSATISHDA O'QUVCHILARNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARINI HISOBGA OLISH

Yo'ldoshova Shahlo Shukurullo qizi

“Sevinch kids” xususiy bolalar bog'chasi tarbiyachisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab o'quvchilariga pedagogik ta'sir ko'rsatishda ularning individual xususiyatlarini hisobga olishning ahamiyati yoritiladi. Har bir o'quvchi o'ziga xos qobiliyat, qiziqish, xarakter va psixologik rivojlanish darajasiga ega bo'lib, bu omillar ta'lim samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi. Maqolada differensial yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va individual rivojlanish trayektoriyasini shakllantirish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, o'qituvchining kuzatuvchanligi, pedagogik diagnostika usullaridan foydalanish va mos metodlarni tanlash orqali har bir o'quvchining ichki imkoniyatlarini ochish yo'llari ko'rsatib beriladi. Individual yondashuv o'quvchilarda o'ziga ishonch, mustaqil fikrlash va motivatsiyani rivojlantirishga xizmat qilishi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: individual yondashuv, pedagogik ta'sir, o'quvchi shaxsi, differensial ta'lim, pedagogik diagnostika, motivatsiya, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim.

Abstract: This article explores the importance of considering students' individual characteristics when applying pedagogical influence in schools. Each learner has unique abilities, interests, personality traits, and levels of psychological development, all of which directly affect learning effectiveness. The paper discusses differentiated instruction, learner-centered education, and the development of individual learning trajectories. Special attention is given to the teacher's observational skills, the use of pedagogical diagnostic methods, and the selection of appropriate teaching strategies. An individualized approach is shown to enhance students' self-confidence, independent thinking, and learning motivation, thereby improving overall educational outcomes.

Key words: individual approach, pedagogical influence, student personality, differentiated instruction, pedagogical diagnostics, motivation, learner-centered education.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение учета индивидуальных особенностей учащихся при осуществлении педагогического воздействия в школе. Каждый ученик обладает уникальными способностями, интересами, характером и уровнем психологического развития, что напрямую влияет на эффективность обучения. В статье анализируются вопросы дифференцированного подхода, личностно-ориентированного обучения и формирования индивидуальной образовательной траектории. Особое внимание уделяется роли наблюдательности учителя, использованию методов педагогической диагностики и выбору адекватных методик обучения. Подчеркивается, что индивидуальный подход способствует развитию уверенности в себе, самостоятельного мышления и учебной мотивации у школьников.

Ключевые слова: индивидуальный подход, педагогическое воздействие, личность ученика, дифференцированное обучение, педагогическая диагностика, мотивация, личностно-ориентированное обучение.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimi tub o'zgarishlar bosqichini boshdan kechirmoqda. Globallashuv jarayonlari, axborot texnologiyalarining tezkor rivojlanishi hamda jamiyat ehtiyojlarining yangilanishi maktab ta'limi oldiga mutlaqo yangi vazifalarni qo'yimoqda. Endilikda ta'lim jarayonining asosiy maqsadi faqat bilim berish bilangina cheklanib qolmay, balki har tomonlama rivojlangan, mustaqil fikrlay oladigan, ijtimoiy faol va moslashuvchan shaxsni tarbiyalashdan iboratdir. Bunday yondashuv esa o'quvchilarning individual xususiyatlarini chuqur o'rganish va pedagogik ta'sir jarayonida ularni albatta hisobga olishni talab etadi.^[1: 320]

Har bir bola o'ziga xos dunyo. Ularning qiziqishlari, qobiliyatlari, temperamenti, xarakteri, tafakkur tezligi, axborotni qabul qilish uslubi va emotsional holati bir-biridan keskin farq qiladi. An'anaviy, barcha uchun bir xil talab va metodlarga asoslangan ta'lim modeli esa bunday rang-baranglikni to'liq qamrab olmaydi. Natijada



ayrim o'quvchilar o'z imkoniyatlarini namoyon qila olmaydi, boshqalari esa o'qishga qiziqishni yo'qotadi. Shu sababli bugungi kunda pedagogik ta'sirni individuallashtirish masalasi nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham nihoyatda dolzarb bo'lib bormoqda.

Mavzuning dolzarbligi, avvalo, zamonaviy ta'lim konsepsiyalarida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etayotgani bilan belgilanadi. Bugungi maktab o'qituvchisi endi faqat bilim manbai emas, balki o'quvchining individual rivojlanishiga yo'l ko'rsatuvchi, uning ichki salohiyatini ochishga yordam beruvchi murabbiy sifatida namoyon bo'lishi zarur. Buning uchun esa pedagog har bir o'quvchining psixologik va intellektual xususiyatlarini bilishi, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlay olishi hamda ta'lim jarayonini shunga mos ravishda tashkil etishi lozim.

Bugungi kunda sinflarda o'quvchilar o'rtasidagi individual tafovutlar yanada yaqqol sezilmoqda. Raqamli texnologiyalar bilan erta tanishgan bolalar tez fikrlashga moyil bo'lsa, boshqalari an'anaviy usullar orqali chuqurroq o'zlashtiradi. Ayrim o'quvchilar vizual axborotni yaxshi qabul qilsa, boshqalari eshitish yoki amaliy faoliyat orqali samarali o'rganadi. Shuningdek, oilaviy muhit, ijtimoiy sharoit, sog'liq holati va shaxsiy tajriba ham bolaning o'qishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Demak, pedagogik ta'sir bir xil qolip asosida emas, balki moslashuvchan va individual yondashuv asosida olib borilishi bugungi kun talabi hisoblanadi.^[2; 192]

Mavzuning ahamiyati shundaki, individual xususiyatlarni inobatga olgan holda tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini oshiradi, ularning ichki motivatsiyasini kuchaytiradi va o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi. O'quvchi o'z qobiliyatlari e'tiborga olinayotganini his qilganida, u dars jarayonida faolroq ishtirok etadi, savollar beradi, mustaqil fikr bildiradi. Bu esa nafaqat akademik natijalarning yaxshilanishiga, balki shaxs sifatida kamol topishiga ham xizmat qiladi.

Shu bilan birga, individual yondashuv ijtimoiy jihatdan ham muhimdir. Har bir bola o'z imkoniyatlariga mos sharoitda ta'lim olsa, teng imkoniyatlar muhiti yaratiladi. Bu esa ta'limdagi adolat tamoyillarini mustahkamlab, ijtimoiy tengsizlikning kamayishiga hissa qo'shadi. Ayniqsa, o'qishda qiynalayotgan yoki alohida e'tibor talab qiladigan o'quvchilar bilan ishlashda individual pedagogik ta'sir hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Mazkur maqolaning maqsadi – maktab o'quvchilariga pedagogik ta'sir ko'rsatishda ularning individual xususiyatlarini hisobga olishning nazariy asoslari va amaliy ahamiyatini yoritib berishdan iborat. Shuningdek, o'qituvchining bu jarayondagi roli, individual yondashuvni amalga oshirish usullari hamda ta'lim samaradorligiga ta'siri tahlil qilinadi. Maqola doirasida individual xususiyatlarni aniqlash, ularni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish va shaxsga yo'naltirilgan pedagogik muhit yaratish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktab o'quvchilarining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda pedagogik ta'sirni tashkil etish masalasi nafaqat amaliy pedagogikaning muhim komponenti, balki ilmiy tadqiqotlarda ham keng yoritiladi. Zamonaviy adabiyotlarda bu yo'nalish pedagogik psixologiya, ta'lim nazariyasi va metodikasi hamda individual yondashuv konsepsiyalari doirasida chuqur tahlil qilingan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan pedagogik strategiyalar ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi va o'quvchilarni bilimga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi.

Pedagogik nazariy adabiyotlarda individual yondashuv mavzusi turlicha talqin etiladi. Masalan, o'quvchilarning o'ziga xos o'rganish uslublarni o'rganish va dars metodologiyasini moslashtirish zaruriyati haqida Sevinch Muradulloyeva tomonidan yozilgan maqolada ta'kidlanadi. Unda individual o'rganish uslublari bo'yicha multimedial yondashuv qo'llash orqali dars samaradorligini oshirish yo'llari tahlil qilingan va har bir o'quvchining axborotni qabul qilish uslubi asosida metodlarni tanlash zarurligi ko'rsatib o'tilgan.^[4; 256]

Shuningdek, ta'limda differentiatsiyalash (differential instruction) kontseptsiyasi ham ko'p ilmiy izlanishlarda markaziy o'rin tutadi. Differentiatsiyalash – bu sinfda har xil qobiliyat va darajadagi o'quvchilarga moslashtirilgan pedagogik yondashuv orqali o'qitishni nazarda tutadi. Sanakulova S.X. o'z maqolasida shuni ta'kidlaydiki, barcha o'quvchilarning ehtiyoj va qiziqishlariga mos keladigan dars strukturasi shakllantirish ta'lim jarayonini har tomonlama yaxshilaydi.^[5; 114]

Individual xususiyatlarni e'tiborga olish masalasi nafaqat ta'lim metodikasida, balki o'quvchilarning psixologik holatini baholashda ham o'rganiladi. O'quvchi shaxsining individual-psixologik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha topilgan tadqiqotlarda psixologik diagnostika, suhbat, anketalar va pedagogik-psixologik ekspertiza kabi usullar orqali o'quvchilarning shaxsiy parametrlarini aniqlash muhimligi qayd etilgan. Bu usullar pedagogga o'quvchilarning shaxsiy imkoniyatlari, motivatsiyasi va ehtiyojlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Xalqaro adabiyotlarda individual tafovutlar kontseptsiyasi yanada murakkab tizimda yoritilgan. Masalan, chet el tadqiqotlarida o'quvchilarning individual farqlari motivatsiya, shaxsiy strategiyalar, yosh, psixologik holat kabi 11ta asosiy omil orqali ta'lim jarayoniga ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Ushbu nazariy yondashuv o'qituvchilarning individual tafovutlarni tan olishlari va ularni dars jarayoniga integratsiya qilish zaruratini qayd etadi.

Individual yondashuv bo'yicha tadqiqotlar shuningdek ta'lim muhitida o'quvchilarning o'ziga xos ehtiyojlarini aniqlash va ularni qondirish mexanizmlarini ishlab chiqish bilan bog'liq. Masalan, International Journal of Environmental and Science Education'da chop etilgan maqolada individual ta'lim dasturlarini ishlab chiqish modeli tavsiya etilgan bo'lib, bunda o'quvchi o'z ta'lim yo'lini tanlash, o'z sur'atida o'rganish va o'z-o'zini baholash imkoniyatlarini beradi.^[6; 200]

Yuqorida keltirilgan ilmiy manbalar pedagogik yondashuvlarning mohiyati, ularning strukturaviy asoslari va ta'lim jarayonida qo'llanish imkoniyatlarini yoritadi. Shu bilan birga, ularning barchasi individual yondashuvning o'quvchilarning maqsadli pedagogik natijalarga erishishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Bu esa o'z navbatida ta'lim mutaxassislari uchun individual yondashuvni amaliyotda qo'llash bo'yicha ilmiy asos yaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda pedagogik ta'sir ko'rsatishning samaradorligini aniqlash uchun quyidagi metodologik usullar qo'llanadi:

Pedagogik diagnostika – o'quvchilarning individual xususiyatlarini aniqlash uchun psixologik-testlar, anketalar va kuzatuvlar qo'llanadi. Bu usullar yordamida o'quvchilarning o'rganish uslubi, motivatsiyasi va temperament kabi individual parametrlar tahlil qilinadi. Bu jarayon o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkonini beradi.

Kuzatuv va intervyular – sinfda o'qituvchining individual yondashuv strategiyalarini qo'llash jarayonini aniqlash maqsadida o'qituvchilar bilan strukturaviy suhbatlar va darslarni kuzatishlar amalga oshiriladi. Bu usul o'qituvchining amaliyotda qanday metodlarni qo'llayotganini va o'quvchilarga ta'lim ta'sirining individual xususiyatlarga qanday moslashtirilayotganini aniqlashga yordam beradi.

Soliqiy-eksperimental usul – o'quvchilarning individual yondashuv asosida ta'lim olgan guruh bilan an'anaviy uslubda o'qitilgan nazorat guruhi natijalari solishtiriladi. Bu usul orqali individual yondashuv samaradorligi statistik jihatdan tahlil qilinadi va uning pedagogik samaradorligi baholanadi.

Ushbu metodologik yondashuv tadqiqotga puxta ilmiy asos yaratadi hamda o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda pedagogik ta'sirni tashkil etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga imkon beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda pedagogik ta'sirni tashkil etish ta'lim samaradorligiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishi tahlillar davomida yaqqol namoyon bo'ldi. Kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, dars jarayonida bir xil metodlardan foydalanish barcha o'quvchilar uchun birdek samarali natija bermaydi. Aksincha, o'quvchilarning qobiliyati, qiziqishi, bilimni qabul qilish tezligi va uslubiga moslashtirilgan yondashuv ularning faolligini oshiradi va o'zlashtirish darajasini yaxshilaydi.^[7; 176]

Tadqiqot davomida o'quvchilarning o'rganish uslublari o'rtasida sezilarli farqlar borligi aniqlandi. Masalan, ayrim o'quvchilar vizual materiallar – sxema, jadval, taqdimot va videolar orqali ma'lumotni tezroq o'zlashtirgan bo'lsa, boshqalari og'zaki tushuntirish va muloqot jarayonida faolroq natija ko'rsatdi. Yana bir guruh o'quvchilar esa amaliy topshiriqlar va tajriba asosidagi o'qitish jarayonida yuqori faollik namoyon etdi. Bu holat shuni ko'rsatadiki, pedagog bir xil uslub bilan cheklanib qolmasdan, turli metodlarni uyg'unlashtirishi zarur.

Shuningdek, individual yondashuv o'quvchilarning psixologik holatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishi kuzatildi. O'qituvchi tomonidan e'tibor va tushunish his qilgan o'quvchilarda darsga nisbatan ijobiy munosabat shakllandi. Ular savollarga faol javob bera boshladi, mustaqil fikr bildirishdan cho'chimadi va o'z imkoniyatlarini namoyon etishga harakat qildi. Ayniqsa, avvallari passiv bo'lgan yoki o'ziga ishonchi past o'quvchilarda sezilarli o'sish qayd etildi.

Differensial topshiriqlardan foydalanish o'quvchilar o'rtasidagi bilim darajasi tafovutini kamaytirishga yordam beradi. Kuchli o'quvchilar murakkabroq vazifalar orqali o'z salohiyatini rivojlantirsa, o'zlashtirishi sustroq bo'lgan o'quvchilar moslashtirilgan topshiriqlar orqali mavzuni puxta egallash imkoniga ega bo'ladi. Natijada sinfda sog'lom raqobat muhiti shakllanadi va o'quvchilarning o'zaro hurmati ortadi.

Individual xususiyatlarni hisobga olish o'qituvchining pedagogik mahoratini ham oshiradi. Tahlil jarayonida o'qituvchi o'quvchilarni chuqurroq o'rganishga, ularning ehtiyojlarini anglashga va darsni yanada puxta rejalashtirishga intilishi aniqlandi. Bu esa ta'lim jarayonining mazmunan boyishiga va o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida ijobiy pedagogik muhit shakllanishiga olib keladi.



O'quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olgan pedagogik ta'sir quyidagi ijobiy o'zgarishlarga olib keladi:

- o'quvchilarning o'quv motivatsiyasi oshadi;
- dars jarayonidagi faollik kuchayadi;
- bilimlarni o'zlashtirish darajasi yaxshilanadi;
- mustaqil fikrlash ko'nikmalari rivojlanadi;
- o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchi ortadi;
- sinfda ijobiy psixologik muhit shakllanadi.

Shunday qilib, individual yondashuv nafaqat ta'lim sifati, balki o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi uchun ham muhim omil ekanligi tasdiqlandi. Pedagogik ta'sirni individuallashtirish zamonaviy maktab ta'limining ajralmas qismi bo'lib, har bir o'quvchining ichki imkoniyatlarini ochishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktab o'quvchilariga pedagogik ta'sir ko'rsatishda ularning individual xususiyatlarini hisobga olish zamonaviy ta'lim jarayonining eng muhim tamoyillaridan biri ekanligi tadqiqot davomida o'z tasdig'ini topdi. Har bir o'quvchi o'ziga xos qobiliyat, qiziqish, psixologik holat va tafakkur uslubiga ega bo'lib, bu omillar uning o'qish jarayonidagi muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, ta'lim jarayonini bir xil qolip asosida tashkil etish kutilgan natijani bermaydi. Aksincha, individual yondashuv o'quvchining ichki salohiyatini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Individual yondashuvning yana bir muhim jihati – bu o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlashidir. O'qituvchi tomonidan e'tibor va qo'llab-quvvatlashni his qilgan bola o'z fikrini erkin bayon qila boshlaydi, xatodan qo'rqmaydi va yangi bilimlarni egallashga nisbatan ijobiy munosabat shakllantiradi. Bu jarayon ayniqsa tortinchoq yoki o'zlashtirishi sust bo'lgan o'quvchilar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Individual pedagogik ta'sir ularni ham ta'lim jarayoniga faol jalb etishga yordam beradi.

Umuman olganda, o'quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda pedagogik ta'sirni tashkil etish – bu zamonaviy ta'limning ajralmas qismi va istiqbolli yo'nalishidir. Bunday yondashuv har bir o'quvchining imkoniyatlarini ochish, uning bilim olishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish va barkamol shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Shunday ekan, kelajakda ta'lim tizimida individual yondashuvni yanada keng joriy etish pedagogik jarayon samaradorligini oshirishning muhim omili bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mavlonova, R., To'raqulov, X., Xoliqberdiyev, K. Pedagogika. – Toshkent: O'qituvchi, 2010. – 320 b.
2. Azizxodjayeva, N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan, 2006. – 192 b.
3. Yo'ldoshev, J., Usmonov, S. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2004. – 180 b.
4. Xodjayev, B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Sano-standart, 2017. – 256 b.
5. Nishonaliyev, U.N. Pedagogik mahorat. – Toshkent: O'qituvchi, 2008. – 144 b.
6. Musurmonova, O. Oila pedagogikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – 200 b.
7. Qurbonov, Sh., Seytxalilov, E. Ta'lim sifati va pedagogik innovatsiyalar. – Toshkent: Fan, 2015. – 176 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.